

**ALISHER NAVOIYNING “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDAGI
“YUSUF QISSASI” VA “YUSUF VA ZULAYHO”
TURKUMIDAGI DOSTONLAR**

Soliyeva Gulshanoy

FarDU Filologiya fakulteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida muhim o‘rin tutgan Yusuf qissasining — “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida va o‘zbek mumtoz adabiyotida keng tarqalgan “Yusuf va Zulayho” turkumidagi dostonlarda talqin etilishi qiyosiy tahlil qilinadi. “Tarixi anbiyo va hukamo”dagi Yusuf qissasi tarixiy-diniy manbalar asosidagi qisqa, ixcham bayon shaklida bo‘lib, unda payg‘ambarlar hayotiga xos ibratli jihatlar, axloqiy poklik, sabr-toqat va ilohiy sinovlar markaziy o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: Yusuf obrazi, Zulayho, nafs, turunj, pok muhabbat, “Tarixi anbiyo va hukamo”, ilohiy muhabbat.

“Yusuf va Zulayho” mavzusidagi dostonlarda esa Yusuf obrazining badiiy talqini yanada kengayib, muhabbat, nafs va ilohiy muhabbat o‘rtasidagi kurash, Zulayho qiyofasining ruhiy kechinmalari, dramatik voqealar orqali yoritiladi. Ushbu dostonlarda voqealar tasviri romantik va tasavvufiy ruqda talqin qilinib, Yusufning nafaqat payg‘ambar sifatidagi, balki go‘zallik va komillik ramzi sifatidagi timsollar yoritiladi.

“Yusuf va Zulayho” turkumi Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan ilohiy-ishqiy mavzulardan biridir. Bu turkumga kiruvchi asarlar juda ko‘p davlat va asrlar davomida yaratilgan va bu turkumidagi dostonlarning variantlari ham ko‘p. “Yusuf qissasi” ilk bor Musoning “Ibtido” kitobida uchraydi. Lekin mazkur kitobda “Yusuf qissasi” yoki “Yusuf va Zulayho” nomi ostida berilmaydi. Kitobning 37-bobidan Yusuf (a.s) bilan bog‘liq voqealar, Yoqub (a.s) avlodlarining Misrga ko‘chib borib, u yerda o‘rnashganlari bayoni ketadi. “Ibtido” kitobi Yusuf (a.s)ning vafoti bilan yakunlanadi. O‘rta Osiyo adabiyotida bu turkumidagi dastlabki asar Ibn Sino qalamiga mansub “Yusuf” qissasidir. Ibn Sinoning bu asariga Qur‘oni Karim syujetlari asos bo‘lgan. Fors-tojik adabiyotida eng mashhur va mukammal talqin Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonidir. XV asr fors adabiyotining yuksak namunasi, tasavvufiy ruh bilan sug‘orilgan, oshiq va ma‘shuqa obrazi orqali ilohiy ishqni targ‘ib qilgan. Jomiy asarida Zulayho insoniy nafs ramzi sifatida boshlanadi, ammo keyinchalik pok muhabbat uni ma‘rifat sari boshlaydi. Hozirda Sharq adabiyotida yuzdan ortiq Yusuf haqidagi qissalar va “Yusuf va Zulayho” dostonlari mavjudligi aytiladi. Fors adabiyoti ta‘sirida gruzin adabiyotida “Yusuf va Zulayho” dostonining paydo bo‘lgani noyob hodisadir.

Alisher Navoiyning tarixnavis sifatidagi faoliyatining yirik namunasi bo'lgan “Tarixi anbiyo va hukamo” risolasi islom dini manbalariga asoslangan. Asar payg‘ambarlar-rasul va nabiyalar, hakim zotlar-allomalar tarixiga bag‘ishlangan. Asarda payg‘ambarlar qissalari hajman o‘zaro farqlanadi. Alisher Navoiy Yusuf (a.s) haqidagi qissani bayon etarkan, o‘zidan avval mazkur mavzuda asar yozgan zotlarni aytib o‘tadi. Firdavsiy va Abdurahmon Jomiy ayni mavzuda doston bitganini va o‘zining ham turkiy tilda masnaviy yozish niyati borligini bildiradi. Alisher Navoiyning Yusuf haqidagi qissasida keltirilgan ma’lumotlarning bosh manbasi Qur’oni Karim bo‘lib, muallif o‘z fikrini dalillash uchun oyatlarni ham havola qiladi. A. Navoiy asari Yusuf (a.s) ta’rifi bilan boshlanadi. “Yusuf (a.s) bani odam jinsining jambilrog'idir”, - deya yozadi. Uni ko'rgan inson bir zumda unga oshiq bo'lar edi, Hatton o'zi ham. Yusuf (a.s) bir kuni o'z aksini oynada ko'rib qoladi va qalbida kibr paydo bo'ladi. U: “agar men qul bo'lganimda meni sotib olish uchun kimning davlati yetardi”, - deya hayol qiladi. Va akalari uni 17 dirham miqdoriga qul qilib sotib yuborishlari kibrga berilgan Yusuf uchun Alloh tomonidan xulosa qilishi uchun berilgan sinov edi. Raqam, joy, ism kabilarda turli asarlarda farqlar seziladi. Shu jumladan, Yusuf (a.s) ning bahosi Navoiy asarida, yuqorida aytib o'tganimizdek, 17 dirham deb yozilgan bo'lsa, boshqa bir asarda 22 dirham yoki tanga uchraydi. Shu kabi farqlardan yana biri, uning onasi vafot etgach, uning kimning qaramog'ida qolishidir. Ayrim manbalarda u xolasining qaramog'ida qoladi degan ma’lumotlar uchrasa, ba’zilarida ammasi uni tarbiya qilganligi yoziladi. Qolaversa, Zulayhoni Yusufga muhabbati tufayli Misr bekklarining ayollari uni malomat qilishi va Zulayho o'z holatini tushuntirish uchun bazm uyushtirgani va qo'llaridagi meva o'rniga qo'llarini kesganlari sahnasi ham turli manbalarda turlicha. A. Navoiy qalamiga mansub variantida ayollar turunj mevasi kesayotgan holatida Yusuf kimgach meva o'rniga qo'llarini kesishgani ta'riflanadi. Ba'zi asarlarda ularning qo'lida apelsin mevasi deya yozilsa, yana ba'zi kitoblarda sabzi to'g'rayotgan sifatida tasvirlanadi. Aslini olganda, “turunj” so'zi qadimgi turkiy tillarda barcha sariq narsalar uchun ishlatilgan. Shu jihatdan, turunj so'zini har bir muallif o'z yashash muhiti, hududi va fikriy tushunchasidan kelib chiqqan holda yozgan.

Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi “Yusuf qissasi” da Yusuf (a.s)ning qul qilib sotilishi, Zulayho bilan uchrashuvi va ular o'rtasidagi munosabatlar yoritilgan. Yusuf Zulayho sababli zindonga tushadi, u yerda uzoq muddat qoladi. Zindonda unga tush ta'bir qilish inoyati beriladi va shu inoyat sababli zindondan ozod etiladi. Asarda Misrni qurg'oqchilikdan olib chiqib, Zulayhoni nikohiga olganini yozar ekan bularning tavsifiga Navoiy ko'p to'xtalmaydi. Sababi, yuqorida aytib o'tganimizdek, Navoiy ham ustozlari singari “Yusuf va Zulayho” mavzusida turkiy tilda alohida bir asar yozish niyati borligidir. Biroq Navoiyga bu nasib etmadi.

“Yusuf va Zulayho” qissasining asosiy g'oyalari sabr va matonat, poklik va iffat, sadoqat, gunohdan tiyilish, iymon va tavakkaldir. Yusufning Zulayho vasvasasiga berilmasligi Sharq axloqiy qarashlarida ideal inson timsoli sifatida talqin qilinadi. Tasavvuf adabiyotida Yusuf ilohiy nur, komil inson, Zulayho -inson nafsining tarbiya topishi, ularning birlashuvi-ruhning kamolotga erishishi sifatida izohlanadi.

Xulosa: “Yusuf va Zulayho” turkumidagi asarlar Sharq adabiyotida juda keng tarqalgan bo'lib, ularning barchasi Qur'oni Karimdagi Yusuf surasiga asoslanadi. Fors-tojik, turki va arab adabiyotlarida yuzlab doston, qissa va nasriy talqinlar yaratilgan. Ular o'z davri uchun nafaqat diniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki badiiy tafakkurning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

A.Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi Yusuf qissasi tasavvufiy-axloqiy ahamiyatga molik. Har bir payg'ambarlar, hakim zotlar hayot yo'li biz uchun dasturi amal vazifasini o'taydi. Yusuf (a.s) qissasi orqali sabr-matonat, poklik, kamtarlik hislatlar inson hayotida duch keladigan muammoli vaziyatlardan chiqishga yordam beradi va har bir qissadan xulosalar chiqarish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. Navoiy, Tarixi anbiyo va hukamo.
- 2.A. Jomiy, Yusuf va Zulayho
- 3.N. Rahmonov, O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2014.
- 4.R. Vohidov, O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2006.